2-ŞÖBA · ÇORVAÇILIK VA HAYVONLAR MAHSULDORLIGI

UDK:632.2.

YUQORI TIRIK VAZNINGA EGA GOLŞTIN ZOTLI SIGIRLARNING SUT MAHSULDORLIGI

Dotsentlar: Narbayeva M.K., Qurbonova Ş.E.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, çorvaçilik va biotexnologiyalar universiteti.

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311097

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
475–477

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Narbayeva M.K., Qurbonova Ş.E. Yuqori tirik vazninga ega Golştin zotli sigirlarning sut mahsuldorligi // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 475–477. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311097

ANNOTATSIYA ***tatsiya.*** *Uşbu maqolada Samarqand viloyati Narpay tumanida "Agro Goldin Spring" qoramolçilikka ixtisoslaşgan fermer xöjaligida golştin zotining yuqori tirik vazninga ega sigirlarining sut mahsuldorligi, oziqlantiriş şaroiti hamda iqtisodiy samaradorligi haqida ma'lumotlar yoritilgan.*

KALIT SÖZLAR ***lit sözlar:*** qoramolçilikka ixtisoslaşgan fermer xöjaligi, qora-ola golştin, zot, oziqlantiriş, tirik vazni, sut, soğim, laktatsiya.

Kiriş. Çorvaçilik tarmoğini jadal rivojlantiriş, zamonaviy va innovatsion uslublarini joriy etiş, mahsulotlar işlab çiqariş hajmini oşiriş va turlarini kengaytiriş, şuningdek aholini mahalliy şaroitda işlab çiqarilgan sifatli va arzon çorva mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlaş hamda çorvaçilikka ixtisoslaşgan korxonalarni davlat tomonidan qöllab-quvvatlaş maqsadidagi Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29-yanvardagi PQ-4576 sonli qarorida "Çorvaçilik tarmoğini davlat tomonidan qöllab-quvvatlaşni qöşimça çora-tadbirlari töğrisida" qarori çorvaçilikning barça tarmoği barqaror rivojlanişida dasturi amal bölmoqda.

Respublikamiz qoramolçiligida keyingi yillarda naslçilik bazasini mustahkamlaş va yuqori mahsuldor podalar yaratiş maqsadida qoramolçiligi rivojlangan Yevropa davlatlaridan turli mahsuldorlik yönalişidagi zotlarga mansub qoramollar keltirilmoqda. Bu qoramollar mahsuldorligi böyiça yuqori irsiy salohiyatga ega. Lekin ular bunday mahsuldorligini faqat töla qiymatli oziqlantiriş va maqbul asraş şaroitlarida yuzaga çiqaradilar.

Sermahsul sigirlardan turli seleksiya guruhlari negizida ularning yangi podasini yaratiş usullarini işlab çiqiş esa nafaqat zotlarni takomillaştiriş, balki ularning boş sonini köpaytiriş va tarqaliş arealini kengaytirişda alohida ahamiyat kasb etadi

Material va metodlar. Ilmiy tadqiqot işining tajriba qismi Samarqand viloyati Narpay tumanida "Agro Goldin Spring" qoramolçilikka ixtisoslaşgan fermer xöjaligida amalga oşirildi. Buning uçun öxşaşlik asosida sof zotli qora-ola golştin zotining yuqori tirik vazniga ega sigirlarining sut mahsuldorligiga boğliqligini, puştdorlik xususiyati, asraş şaroiti,

iste'mol qilgan oziqasini tirik vazn bilan qoplaşi xususiyatlari örganiş rejalaştirilgan. Tajriba uçun 2 laktatsiyadagi har xil tirik vazndagi sigirlarda I-guruhga 500-550 kg, II-guruhga 560-590kg, III-guruhga 600 va 600 dan yuqori tirik vaznga ega bölgan sigirlar ajratilgan.

NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Sigirlarni yuqori me'yorda va töyimli ozuqalar bilan oziqlantiriş sut miqdoriga va uning sifatiga ijobiy ta'sir körsatadi. Qoramollardan olinadigan asosiy mahsulot sut bölib, bu inson organizmi uçun muhim va eng zarur bölgan mahsulot hisoblanadi. Çunki, sutning tarkibida inson organizmida engil hazm böladigan oqsil, yoğ, mineral, vitamin va boşqa 100 dan ortiq elementlar mavjud. Bundan taşqari inson organizmi uçun ijobiy ta'sirga ega bölgan 10 dan ortiq iste'mol mahsulotlari sutni qayta işlaş natijasida olinadi. Şuni takidlaş lozimki, boşqa biror-bir mahsulotni qayta işlaşdan bunçalik köp xildagi tayyor va sifatli mahsulot olinmaydi. Şuning uçun ham sut mahsulotini dunyo böyiça asosiy qismini beradigan manba-sigirlarni urçitişda, tanlaş va saralaşda, ularni asraş va oziqlantirişda aynan şu belgi asos qilib olinadi. Boşqaça qilib aytganda sigirlar bilan olib boriladigan zooveterinariya, seleksion, taşkiliy va iqtisodiy tadbirning asosiy maqsadi hayvonlarni sut mahsulotini miqdorini oşiriş hamda ularni ekologik jihatdan sifatini yaxşilaş hisoblanadi.

Biz öz tadqiqotlarimizda ikkinçi tuğim sigirlarining sut mahsuldorligini tirik vazniga boğliqligini örgandik. Xöjalikda sigirlar soğiş binosida bir vaqtda 24 boş sigir 3 taktli soğiş aparatlarida sogiladi.

Ma'lumotlarni tahlilidan körinib turibdiki, laktatsiya davrida eng köp sut mahsuloti III – guruhdagi sigirlaridan olingan bölib 1 boş sigirdan soğib olingan sut örtaça 5205,5 kg ni taşkil qilgan. Bu körsatkiç böyiça ular öz tengqurlari I va II – guruhlardagi sigirlarni tegişliça: 465,3 kg (R<0,01) va 256,5 kg (R<0,03) orqada qoldirişgan.

1-jadval II laktatsiyada III guruh sigirlarining sut miqdori I va II guruhlardagi tengqurlarinikidan tegişliça 465,3 kg (R>0,99) va 256,5 kg, sut yoği çiqimi 15,6 kg (R>0,999) va 8,4 kg, sut oqsil çiqimi 14,9 kg (R>0,999) va 8,0 kg, 4%-li sut 389,3 kg (R>0,999) va 209,9 kg yuqori böldi. III tajriba guruhidagi sigirlarning sut yoği çiqimi, 200,9 kg-ni taşkil etib öz tengqurlari I va II tajriba guruhlaridagi sigirlardan mos holda 15,6 kg yoki 8,4 foiz; va 8,4 kg yoki 4,4 foiz; 4 % -li sut miqdori esa 5022,8 kg-ni taşkil etib tengqurlari körsatkiçlaridan 389,3 kg yoki 8,4 foiz; va 209,9 kg yoki 4,4 foizga yuqori körsatkiçga ega böldi.

1-jadval

Tajriba guruhlaridagi sigirlarning sut mahsuldorligi n=10

Körsatkiçlar	Guruhlar					
	I		II		III	
	$\bar{X} \pm Sx$	C_v,%	$\bar{X} \pm Sx$	C_v,%	$\bar{X} \pm Sx$	C_v,%
Sut miqdori, kg	4740,2±92,6	7,31	4949,0±104,6	7,91	5205,5±113,0	8,16
Sutdagi yoğ, %	3,91±0,03	2,54	3,89±0,03	2,75	3,86±0,04	3,61
Sut yoği çiqimi, kg	185,3±2,8	5,58	192,5±2,95	5,73	200,9±3,4	6,44
Sutdagi oqsil, %	3,54±0,03	3,17	3,53±0,02	2,12	3,51±0,02	2,13
Sut oqsili çiqimi, kg	167,8±2,12	4,72	174,7±1,86	3,98	182,7±1,55	3,15
4%-li sut miqdori, kg	4676,2 ±65,6	5,30	4867,3±74,9	5,83	5096,2±86,0	6,50
Tirik vazni, kg	552,6±2,40		595,8±1,41		655,8±1,41	
Quruq modda,%	12,45		12,44		12,41	
Yoğsizlantirilgan quruq sut qoldiği,%	8,67		8,67		8,66	


https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311097

Sut qandi, %	4,51		4,51		4,50	

Sut tarkibidagi quruq modda, yoğsizlantirilgan quruq sut qoldiği (YOQSQ) va sut qandi kabi körsatkiçlar böyiça guruhlararo farq deyarli kuzatilmagan. Şunday qilib,özining quruqlik davrida tirik vazni bilan ustunlik qilgan III -turuh sigirlarining sut mahsuldorligi ham yuqori bölgan.

Barça tajriba guruhlarida eng yuqori oylik sut miqdori laktatsiyaning uçinçi oyida kuzatildi, bu oyda III tajriba guruhidagi sigirlarining oylik sut miqdori I va II tajriba guruhlaridagi sigirlarga qaraganda tegişliça ravişda 44 va 24 kg yuqori böldi.

LAKTATSIYADA SIGIRLAR LAKTATSIYASINING KEÇIŞ XUSUSIYATLARI



I tajriba guruhidagi sigirlarning oylik sut miqdori laktatsiyasidagi sut miqdorining 12,33 %-ni, II guruhda 12,37 %-ni, III guruhda 12,53%-ni taşkil etdi. Tajriba guruhlarida sigirlarning doimiylik koeffitsientini örganiş oylik sut miqdori laktatsiyaning oltinçi oyigaça yuqori darajada saqlanib turdi, keyin asta-sekinlik bilan pasayişi kuzatildi.

Xulosa. Tajriba guruhlaridagi sigirlarning laktatsiyadan qat'iy nazar, har 100 kg tirik vazni hisobiga sut maxsuloti çiqimi yuqori darajada böldi. Bunday sigirlardan foydalaniş samaradorligini oşirişda hamda yuqori sermahsul podalar yaratişda muhim omil ekanligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sobirov P.S., Kaxarov.A.K., Döstqulov S.D. Çorva mollarini urçitiş. Toşkent. 2003. 352 b.
2. M.X.Dusmuxammedova, U.N.Nosirov. Toşkent atrofida çorvaçilik fermer xöjaliklar podasini golştinlaştiriş va sersut qiliş texnologiya usullarida sut maxsuldorligini oşiriş. //Zooveterinariya. 2012 № 7. 30 -31 b.
3. 3.Nosirov U.N. va boşqalar. Şaxsiy, yodamçi va dehkon xöjaliklarida zoti yaxşilangan maxalliy yoş qoramollarning ösiş va rivojlanişi. //Zooveterinariya. 2012. №11. 33-35 b.
4. Egamberdieva, Z. K., & Narbaeva, M. K. (2022). USE OF HYDROPONIC GREEN FODDER IN CATTLE FEEDING.
5. Nortaşeva, M., & Narbayeva, M. K. (2022). QORAMOLLARNI PODANI QAYTA TO 'LDIRIŞ XUSUSIYATLARI. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 605-607.